

KO'CHMA DO'KONLAR XIZMATI YO'LGA QO'YILDI

Bu yilgi pandemiya sharoitida avvalo oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining ehtiyojini qondirish eng muhim vazifaga aylandi.

Barchamizga ma'lumki, Yangi yil bayrami arafasida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi har qachongidan ham oshadi. Shuni inobatga olgan holda sektor rahbarlari va "Dehqon bozori" MCHJ tomonidan maxsus jihozlangan transport vositalari orqali tumanimizning barcha hududlarida arzonlashtirilgan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari savdo yarmarkalari hamda ko'chma do'konlar tashkil etildi.



Shuningdek, “Dehqon bozori”da Yangi yil oldidan narx-navo barqarorligini ta'minlash uchun arzonlashtirilgan go'sht va go'sht mahsulotlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkasi tashkil etildi. Unda tumanimizdagi fermerlar, savdo-xarid korxonalarini, ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini arzonlashtirilgan narxlarda aholiga taqdim etmoqda. Buning evaziga bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxini barqaror saqlashga erishilmoqda.



2020-12-30 20:08:44